

**BUYUK NAVOIYSHUNOS OLIMA SUYIMA G'ANIYEVA**

*Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti  
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti  
Filologiya va tillarni o'qitish: arab tili  
1-kurs talabasi Ya'qubova Nigora Dilshod qizi  
Ilmiy rahbar: f.f.d., dots. Yuldasheva X.  
nigorayaqubova1211@gmail.com*

**Annotatsiya:** Suyima G'aniyeva navoiyshunoslik ilmida muhim o'rin egallagan olimlardan biri hisoblanadi. U butun ilmiy faoliyatini Alisher Navoiy hayoti, ijodi va boy adabiy merosini tadqiq etishga bag'ishlagan. Ushbu maqolada uning Alisher Navoiy ijodini o'rganishga qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, navoiyshunos, "Majolis un-nafois", ilmiy-tanqidiy matn.

**Аннотация:** Суйима Ганиева является одной из учёных, занимающих важное место в науке навоиведения. Она посвятила всю свою научную деятельность исследованию жизни, творчества и богатого литературного наследия Алишера Навои. В данной статье приводятся сведения о вкладе учёного-навоиведа в изучение творчества Алишера Навои.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, навоивед, «Маджолис ун-нафоис», научно-критический текст.

**Annotation:** Suyima Ganiyeva is considered one of the scholars who hold an important place in the field of Navoi studies. She devoted her entire scientific career to researching the life, творчество, and rich literary heritage of Alisher Navoi. This article provides information about the contribution of the Navoi scholar to the study of Alisher Navoi's works.

**Keywords:** Alisher Navoi, Navoi scholar, "Majolis un-nafois", critical scientific text.

Ma'lumki, ulug' shoir Alisher Navoiy asarlarining ilmiy-tanqidiy matnini yaratish ishlari XX asrning 40-50-yillarida qizg'in tusda olib borilgan. Kuchli navoiyshunos va matnshunoslar shoirning asarlarini batafsil o'rganishni boshlashdi. Bunday vaziyatda Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratishdek mas'uliyatli mehnat, kuchli sabr talab etadigan ishni boshlash, matn tuzishga yangicha yondashuv mezonlarining olib kirilishi jihatidan alohida ahamiyat kasb etardi, desak mubolaga' bo'lmaydi.

Adabiyotshunos, matnshunos olimi Suyima G'aniyeva Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" asari ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda shunday yirik ishni

amalga oshirdi. 1961-yili ushbu asarning ilmiy-tanqidiy matni eski o'zbek yozuvida nashr etildi. Ushbu ish Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish tajribalarining deyarli barchasini jamlabgina qolmay, olimaning matniy tadqiqot usul va tamoyillarini ham namoyon etishi bilan e'tiborlidir. Tazkiraning ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda tayanch sifatida olingan Vena nusxasi boshqalariga qaraganda eng to'liq va qadimiy hisoblanib, 903/1497–98 yili ko'chirilgan. Bu qo'lyozmaning mikrofilmi nemis filologi Irmgard Engelke tomonidan O'zbekistonga taqdim etilgan edi. S.G'aniyeva qo'lyozma nusxalar o'rtasidagi farqlarni aniqlashda, asosan, qiyosiy-chog'ishtirma, saralash, tadqiqot usulini qo'llaydi. Bunda muallifga tegishli deb qabul qilingan matndan keskin farq qiluvchi hamda tahrir xususiyatiga mos bo'lmagan o'zgarishlar tiklanayotgan matnga kiritilmaydi. Har bir so'z, jumlaning ma'nosi ilmiy tekshiriladi. S.G'aniyeva shu tamoyil asosida matniy tafovutlarni aniqlab, tahlildan o'tkazgach, farqlarni ilmiy apparatda ko'rsatib borgan. S.G'aniyeva "Majolisun-nafois" asari qo'lyozmalari ustida ish olib borar ekan, nafaqat matnshunosning vazifalarini aniqlab berdi, balki ish jarayonini qo'lyozmalarga nisbatan qanday qo'llanilishini qisqacha tavsiflab beradi. S.G'aniyevaning matnshunoslik tadqiqot usul va tamoyillari haqida "Majolisun-nafois" asari ilmiy-tanqidiy matniga yozilgan "Davr adabiyoti hayoti ko'zgusi" nomli maqolasidan bilib olamiz

Olimaning dastlabki asari "Alisher Navoiy" kitobi hisoblanadi. Unda Mir Alisher Navoiyning mashaqqatli hayoti, ijodiy faoliyati va buyuk adabiy merosi ommabop uslubda bayon etilgan. Bu kitobni olima yangi manbalardan foydalanib yozgan edi. So'ngra Suyima G'aniyeva "Majolis un-nafois" asarining ilmiy-tanqidiy matni (arab yozuvida) kattagina so'zboshi bilan 1961-yilda nashr etgan va Moskva, Leningrad, Eron, Afg'oniston, Turkiya olimlari bu kitobga juda katta qiziqish bildirib olimadan nusxa yuborishni so'rashgan. Bunday katta qiziqish va e'tirofni ko'rgan olima "Majolis un-nafois" haqida 50 ga yaqin maqolalarini o'zbek, rus, ingliz, fors, olmon, fransuz tillarida chop ettirdi. 1962-yil Suyima G'aniyevaning "Navoiy hayoti va ijodi" nomli kitobi nashrdan chiqadi. Bu kitob qayta tahrirlanib 1968-yilda qaytadan chop etiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, Suyima G'aniyevaning adabiy hayotida eng quvonchli voqealaridan biri bu 1991-yilda Tehron shahrida joylashgan "Kohi Guliston" muzeyida saqlanayotgan Navoiyning "Navodir un-nihoya" devonini to'rtta tilda: o'zbek, rus, ingliz va fors tillarida yozilgan so'z boshi bilan nashrdan chiqara olgani ekan.

Shuningdek, Suyima G'aniyevaning Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Alisher Navoiy ijodidagi insonparvarlik g'oyalari", "Navoiy g'azallarida zodagonlik motivlari", "Navoiyning vasiyati", "Navoiyning avtografi" singari kitoblari bor.

Olimaning ijodiy asarlari faqat O'zbekistonda emas, balki Rossiya, Yaponiya, Eron, Hindiston, Indoneziya singari mamlakatlarda ham nashr etilgan. Bu orqali olima

o'zbek mumtoz adabiyoti va ulug' Alisher Navoiy asarlarining umumbashariy g'oyalari, o'ziga xosliklarini butun dunyo mamlakatlarida targ'ib qildi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Muxammedova F. (2025) Sharqshunos olimasi Suyima G'aniyeva hayoti va ijodi talaba nigohida.
2. Umarova S. Alisher Navoiy asarlarini o'rganishda Suyima G'aniyeva matniy tadqiq usullari // Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matnini yaratish metodikasi va matnshunoslik muammolari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. – B. 535–537.